



**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**TERMIZ MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI**



**“RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIYA VA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI  
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjuman**

**2024-yil 17-aprel**





OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA INSTITUTI  
SURXONDARYO VILOYATI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI BOSHQARMASI  
O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI  
SURXONDARYO VILOYAT KENGASHI  
"EKOSAN" FONDINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIIY  
TASHKILOTI

**"RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIYA VA HAYOT FAOLIYATI  
XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI"**

mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjuman

MATERIALLARI TO'PLAMI

Termiz-2024

Ushbu to'plamda Oliy ta'lim muassasalar va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchi va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari e'lon qilingan. Anjuman Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'iga asosan o'tkazildi.

**Mas'ul muharrir:**

**O'.Axmedov**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti rektori

**Tahrir hay'ati:**

M.Urozov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
rais o'rinbosari

M.Majitov

Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha birinchi prorektor, a'zo

Z.Xudoyqulov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor, a'zo

B.Amanov

Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-  
pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo  
Sanoat texnologiyalari fakulteti dekani, a'zo

F.Eshqurbonov

B.Primkulov

Mexanika fakulteti dekani, a'zo

B.Xushboqov

Energetika va konchilik ishi fakulteti dekani, a'zo

A.Butayarov

Qurilish fakulteti dekani, a'zo

F.Omonov

Elektrotexnika, elektromexanika va  
elektrotexnologiya kafedrası mudiri, a'zo

O.Ochildiyev

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası  
mudiri, a'zo

B.Mamashayev

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası  
katta o'qituvchisi, a'zo

K.Yadgarov

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası  
dots. v.b., a'zo

Sh.G'afforova

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası  
dots. v.b., a'zo

**BUXORO VOHASI AGROTSENOZ LANDSHAFTIDA NOYOB VA  
YO‘QOLIB KETISH ARAFASIDA TURGAN QUHLARNI  
MUHOFAZA QILISH**

*B.N. Doniyorov<sup>1</sup>, Ya.I. Ametov<sup>2</sup>*

*Buxoro davlat universiteti<sup>1</sup>,*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti<sup>2</sup>*

O‘zbekiston Respublikasining 4500 turdan ortiq florasi va 2 000 000 turga yaqin faunasi o‘ziga xos bo‘lib, shunisi bilan turlar xilma-xilligiga ko‘ra boshqa hududlar bioxilma-xilligidan farq qiladi. XX asrning 50-yillaridan boshlab hozirgacha insoniyat tabiiy landshaftlarni antropogen landshaftlarga aylantirishi kuchayib kelgan. Oqibatda qo‘riq yerlarda shakllangan antropogen yangilanishlar yovvoyi xilma-xillikni maxalliy xillari bilan almashishiga, siqib chiqarishiga, kamayib hatto yo‘qolib ketishiga olib kelgan. Yildan-yilga biotsenozning rang-barangligi, qadimiyligi, endemikligi kambag‘allashib, tur individlari bioshkastlanib nodir, kamyob xilga aylanyapti. Turlarning yo‘qolib ketishi tabiiy jarayon bo‘lsada, tur hosil bo‘lishi uzoq vaqt talab qiladi. Mazkur holatda voha hududidagi muhofazatalab turlarni aniqlashga, ularni muhofaza qilish bo‘yicha tezkor va samarali chora-tadbirlarni ko‘rishga ehtiyoj bor.

Mamlakatimiz tabiiy va madaniy landshaftlarida birgina qushlarning 19 turkum, 61 oilaga mansub 460 turi uchrashi manbalardan ma’lum [2]. Shundan 9 turkum-47,4 %, 19 oila-31,2 %, 52 tur-11,3 % O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritilgan [1; 3].

Buxoro vohasi agrotsenozlaridagi noyob va yo‘qolib ketish arafasida turgan qushlarni muhofazasi bo‘yicha paxta va bug‘doy ekilgan dalalar, daraxtzorlar hamda suvliklar va ularning atrofi ekotizmlarida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida 16 turkum-84,2 %, 47 oila-77,0 % ga mansub 211 tur-45,9 % qush uchrashi aniqlangan bo‘lsa, shundan 8 turkum-50,0 %, 14 oila-29,8 % ga mansub 25 tur-11,9 % qushlar vohadagi antropogen omillar, tabiiy landshaftlarning ehtiyojga mos vaqt o‘tgan sari madaniylashishi, rejali va ilmiy asosda tashkil qilingan ov madaniyatiga rioya qilmaslik yoki ov jarayoni nazorati vakolatli

mutaxassislar tomonidan to‘la qamrab olinmayotganligi tufayli nosog‘lom ov harakati shakllanishi, ekologik suksessiyalar, tadqiqot o‘tkazilgan agrotsenozlar biomassasi hajmining mavsumiy o‘zgarib turishi kabi salbiy sabablar tufayli muhofazatalabligi ayon bo‘ldi. Quyidagi 1-jadvalda Buxoro vohasi agrotsenoz landshaftida noyob va yo‘qolib ketish arafasida turgan qushlar ro‘yxati, uchrash holati va muhofaza maqomi ifodalanadi.

1-jadval

Buxoro vohasi agrotsenoz landshaftida noyob va yo‘qolib ketish arafasida turgan qushlar ro‘yxati, uchrash holati va muhofaza maqomi

T / r	Turkum, oila va turlarning lotincha-o‘zbekcha nomlari	Uchrash holati	Muhofaza maqomi
<b>PELECANIFORMES-KURAKOYOQLILAR</b>			
<i>PELECANIDAE-BIRQOZONLAR YOKI MESHKOPCHILAR</i>			
1	<i>Pelecanus onocrotalus</i> -Pushi saqoqush	M	2 (VU:D) / LC
2	<i>Pelecanus crispus</i> -Jingalak saqoqush	M	1 (EN) / VU
<i>PHALACROCORACIDAE-QORAVOYLAR</i>			
3	<i>Phalacrocorax rygmaeus</i> -Kichik qoravoy, Qorabuzov	R	3 (NT) / LC
<b>CICONIIFORMES-LAYLAKSIMONLAR</b>			
<i>ARDEIDAE-QARQARALAR</i>			
4	<i>Egretta garzetta</i> -Kichik oq qarqara	BM	2 (VU:D) / LC
<i>THRESKIORNITHIDAE-IBISLAR</i>			
5	<i>Platalea leucorodia</i> -Qoshiq burun	BM	2 (VU:D) / LC
6	<i>Plegadis falcinellus</i> -Qoravoy	BM	2 (VU:D) / LC

ANSERIFORMES-G‘OZSIMONLAR			
ANATIDAE-O‘RDAKLAR			
7	<i>Cygnus olor</i> -Vishildoq oqqush	R	3 (NT) / LC
8	<i>Cygnus cygnus</i> -Baqiroq oqqush	M	2 (VU:R) / LC
9	<i>Rufibrenta ruficollis</i> - Qiziltomoq kazarka	M	2 (VU:R) / VU
10	<i>Aythya nyroca</i> -Oqko‘z, Ola qanot o‘rdak	BM	2 (VU:D) / VU
FALCONIFORMES-LOCHINSIMONLAR			
PANDIONIDAE-SKOPALAR			
11	<i>Pandion haliaetus</i> -Suvqiyg‘ir	M	2 (VU:R) / LC
ACCIPITRIDAE-QARCHIG‘AYLAR			
12	<i>Circus macrourus</i> -Dasht bo‘ktargisi	M	3 (NT) / LR- nt
13	<i>Haliaeetus leucoryphus</i> -Uzun dumli suvburgut	MW	1 (EN) / VU
14	<i>Haliaeetus albicilla</i> -Oq dumli suvburgut	MW	2 (VU:R) / LC
15	<i>Neophron percnopterus</i> -Kal jo‘rchi	M	2 (VU:D) / EN
16	<i>Aegyptius monachus</i> -Qora tasqara	M	3 (NT) / NT
FALCONIDAE-LOCHINLAR			
17	<i>Falco naumanni</i> -Dasht miqqiysi, Kuyka	BM	3 (NT) / LC
GALLIFORMES-TOVUQSIMONLAR			
PHASIANIDAE-QIRG‘OVULLAR			

1 8	<i>Phasianus colchicus</i> -Qirg'ovul	R	3 (NT)
GRUIFORMES-TURNASIMONLAR			
<i>OTIDIDAE-TUVALOQLAR</i>			
1 9	<i>Otis tarda</i> -Tuvaloq	M	1 (CR) / VU
2 0	<i>Tetrax tetrax</i> -Bizg'aldoq	M	2 (VU:D) / NT
2 1	<i>Chlamydotis macqueenii</i> - Yo'rg'a tuvaloq	M	2 (VU:D) / VU
CHARADRIIFORMES-RJANKASIMONLAR			
<i>SCOLOPACIDAE-LOYXO'RAKLAR</i>			
2 2	<i>Numenius arquata</i> -Katta uzunburun balchiqchi	M	2 (VU:D) / NT
<i>LARIDAE-BALIQCHILAR</i>			
2 3	<i>Larus ichthyaetus</i> -Qoraboshli baliqchi, Qoraboshli chag'alay	MW	2 (VU:D) / LC
COLUMBIFORMES-KAPTARSIMONLAR			
<i>PTEROCLIDIDAE-BULDURUQLAR</i>			
2 4	<i>Pterocles alchata</i> -Oqbovur	BM	2 (VU:D) / LC
<i>COLUMBIDAE-KAPTARLAR</i>			
2 5	<i>Streptopelia turtur</i> -Oddiy g'urrak	BM	2 (VU:D) / VU

Izoh : “Butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasidagi-Critically Endangered”-CR, yoki “Yo‘q bo‘lib ketayotgan-Endangered”-EN xavfli holatdagi turlar-1 deb baholanadi; Turning hayotiy parametrlari yashab qolishi uchun tahdid poyonidan uncha uzoq bo‘lmasa yoki unga noaniq davr mobaynida o‘rtacha ehtimollik bilan yaqinlashib qolsa va shu bois uning yovvoyi tabiatda yo‘q bo‘lib ketish xavfi o‘rtacha darajada bo‘lsa, bu tur “Zaif” deb hisoblanadi hamda -2 deb baholanadi;

Zaif toifasiga mansub turning hayotiy parametrlari torayib borayotgan yoki juda o'zgaruvchan holatda bo'lsa, u "Qisqarib borayotgan-Vulnerable Declining"-VU:D TMXI ning D mezonisiz VU toifasi deb baholanadi; Turning hayotiy parametrlari yashab qolishi uchun tahdid poyonidan nisbatan uzoq bo'lsada, ammo noaniq davr mobaynida uning shu darajaga yetishi ehtimoli mavjud bo'lgan holda tur "Yo'q bo'lib ketish ehtimoliga yaqin-Near Threatened"-NT 3-deb belgilanadi. Mazkur toifaga o'tmishda yo'q bo'lib ketish xavfi ostida bo'lgan, ammo o'z areali va sonini barqaror holatga keltirgan turlar, tabiat muhofazasi doirasiga kiritilgan hamda muhofaza holati muhofazaga bog'liq bo'lgan turlar kiradi. Turli sabablarga ko'ra milliy Qizil kitobga kiritilmagan turlarni TMXI Qizil kitob toifalari bo'lmagan quyidagi texnik toifalarga kiritishni tavsiya qiladi: "Eng kam xavf tug'dirayotgan-Least Concern"-LC mezonlar bo'yicha baholangan, ammo belgilangan bahoga to'liq mos kelmaydigan yoki "Yo'q bo'lib ketish ehtimoliga yaqin" bo'lmagan turlar; "Baholanmaydigan-Not Applicable"-NA milliy miqyosda baholanmaydigan turlar; "Baholanmagan-Not Evaluated"-NE mezonlar bo'yicha hali baholanmagan turlar.

Muhofazaga muhtoj turlari ko'p turkum va oila bo'yicha Lochinsimonlar turkumining Qarchig'aylar oilasi 5 tur-20,0 %, G'ozsimonlar turkumi O'rdaklar oilasi 4 tur-16,0 % bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha Tovuqsimonlar turkumi Qirg'ovullar oilasi 1 tur-4,0 % bilan ustunlik qiladi. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib, kamyob va yo'qolib borayotgan qushlarni muhofaza qilish jamiyatimizning birinchi darajali vazifasiga aylanmog'i lozim.

Buxoro vohasi agrotsenozlarida uchrovchi hayoti suvliklar va ularning atrofi ekotizmlari bilan bog'liq qushlarni muhofaza qilish va sonini barqarorlashtirish uchun muhofazalanadigan hududlarni uzoq davrga tashkil qilish, xususan ularning kallonial ko'payish davrida yirik koloniyalari joylashgan yerlarda mavsumiy bo'lsada kuchaytirilgan muhofaza choralarini ko'rish lozim.

Paxta va bug'doy ekilgan dalalarda uchrovchi kamyob turlarni saqlashda almashlab ekish muddatini to'g'ri tashkil qilish, takroriy ekinlarni yetishtirish turg'unligiga erishish, noqonuniy ovlashga chek qo'yich samara beradi.



Daraxtzorlarda tarqalgan nodir qushlarni saqlashda bog'larni yoshartirishni zamonaviy mezonini ishlab chiqish va amaliy natijadorligini tahliliy monitoringini turg'un yuritish lozim. Buning uchun tabiatni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda aholi o'rtasida doimiy tushuntirish ishlarini olib borish orqali davomli jamoatchilik nazoratini takomillashtirish hamda ushbu qushlarning foydali va estetik tomonlari haqida ko'proq targ'ibot ishlarini tizimli yuritish maqsadga muvofiq.

Azaldan kam sonli qushlarni muhofazalash tadbirlari amalga oshirilgan bo'lib, hozirgi vaqtga kelib bu hol dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularni asrab qolish va populatsiyasini tashkil qiluvchi individlar sonini ko'paytirish uchun qo'yidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: -muhofazaga moyil turning tabiiy yashash joyini saqlash, brakonyerlar ustidan davomli nazoratni kuchaytirish;

-ularning yashash joylari sifatida Sho'rko'l, To'dako'l va Quyimazor kabi muhim ornitologik hududlarni qo'riqxonaga aylantirish;

-kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish bo'yicha mahalliy aholi orasida davomli, zamonaviy targ'ibotni yuritish;

-qushlarni asrash borasida mavjud aholi orasida ommaviy axborot vositalari va milliy nashrlarning mos xizmatini yaratish va amaliyotda qo'llash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдуллаев М.А., Бақоев С.Б., Файзиев А.Ф., Назаров И.К. Бухоро вилоятида учрайдиган нодир ва Ўзбекистон <<Қизил китоби>>га киритилган ўсимлик ва ҳайвонлар. - Бухоро, 1994. - Б. 32-49.
2. Митропольский О.В., Митропольский М.Г. Список птиц Узбекистана. - Ташкент, 2009. -18 с.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Қизил китоби” II жилд. - Тошкент, 2019. -Б. 252-281.

<b>Melamindan tayyorlangan mahsulotlarning ekologiyaga ta'siri</b> <i>M.R.O'ralova, A.A.Ashurova, M.B.Xolboyeva</i>	171
<b>Buxoro vohasi agrotsenoz landshaftida noyob va yo'qolib ketish arafasida turgan qushlarni muhofaza qilish</b> <i>B.N. Doniyorov<sup>1</sup>, Ya.I. Ametov<sup>2</sup></i>	173
<b>Asfaltbeton qoplamalarini yotqizish jarayonida atrof muhitga chiqayotgan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish texnologiyasi</b> <i>t.f.d, professor I.S.Sodiqov, S.M.Tilakov</i>	180
<b>O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar</b> <i>B.Begamov, H.A.Hasanov, Z.X.Misirov, I.E.Tovoshareva</i>	185
<b>Shaharlarda yashil belbog'ning ahamiyati</b> <i>Z.X.Misirov, H.A.Hasanov, Sh. B.Abduraximova</i>	188
<b>Qizilqum ekotizimlari holatini hudud entomokomplekslarining shakllanishiga ta'siri</b> <i>B.Fayzullaev, O.Kulliyeva</i>	193
<b>Ekologik muammolar va yechimlarning ilmiy asoslari</b> <i>I.A.Yoqubov, U.J.Eshanqulov</i>	197
<b>Tabiiy resurslardan foydalanishning mazmuni va ilmiy ahamiyati</b> <i>N.K.Abdimuratova</i>	200
<b>Atrof muhit ifloslanishi. Chiqindi muammosi</b> <i>B.Mamashayev, R.Tojiyev</i>	205
<b>Plastifikatorlarning atrof- muhitga ta'siri</b> <i>A.A.Ashurova, M.R.O'ralova, M.B.Xolboyeva</i>	209
<b>Ekologik notoza oqova suvlarni tozalab neft va gaz sanoatida qo'llash</b> <i>J.B.Abduraimov, A.M.Jo'rayev</i>	212
<b>Bioenergiyaning atrof-muhitdagi ahamiyati</b> <i>M.A.Xalquziyeva, Sh.R.Tulanova, M.S.Hazratov</i>	216
<b>Neft va gaz sanoatida atrof muhitni muhofaza qilish shart – sharoitini yanada takomillashtirish</b> <i>A.M.Xolmuxammadiev, J.B.Abduraimov, A.X.Ergashev</i>	221

**“RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIYA VA HAYOT FAOLIYATI  
XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjuman materiallar to'plami

**Muharrir:** O'.Axmedov

**Musahhah:** O.Ochildiyev

**Texnik muharrir:** S.Omandavlatov

B.Mamashayev

G'.Ibroximov

R.Samanov

**Kompyuterda sahifalovchilar:** H.Hasanov

O.Bo'riyev

M.Musaeva

Terishga 10.04.2024-yilda berildi. Bosishga 15.04.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'ozi. Cambria garniturasida. Shartli bosma tabog'i 31

TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti.

Termiz davlat universiteti nashr-matbaa bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko'chasi, 43-uy.

